

Ádebiyatlar

1. Халық депутатлары Нөкис районлық Кеңесиниң 2020-жыл 8-октябрдеги «Райондағы географиялық объектлерге атама беріу хэм олардың атамаларын өзгертіу мәселелери ҳақында»ғы 51/13-санлы Шешими.
2. Балтабаев О.О. Қорақалпоғистон Республикаси ойконимлариниң ижтимоий-географик тахлили. География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд: 2022. 45-б.
3. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: «Наука», 1978. –С. 198.
4. Hakimov Q. Toponimika. – T.: «Mumtoz soʻz», 2016. 368-b.
5. Qorayev S. Toponimika. – T.: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2006. 320-b.

REZYUME. Ushbu maqolada Qoraqalpogʻiston Respublikasi Nukus tumani oykonimlarining shakllanishida mahalliy geografik terminlar, oykonimlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning paydo boʻlish davri aniqlangan va ayrim oykonimlar toponimik meros sifatida tavsiya etilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье определены местные географические термины в формировании ойконимов Нукусского района Республики Каракалпакстан, лексико-семантические особенности ойконимов, период их возникновения и предложены некоторые ойконимы в качестве топонимического наследия.

SUMMARY. In this article, local geographical terms in the formation of oikonyms of the Nukus region of the Republic of Karakalpakstan, lexical-semantic features of oikonyms, the period of their occurrence are determined, some oikonyms are recommended as toponymic heritage.

UDK: 332.2.021

SAMARQAND VILOYATIDA AGROSANOAT KLASSTERLARINI HUDUDIIY JOYLASHUVI VA IXTISOSLASHUVI

Sh.X.Boboyev – tayanch doktorant

Samarqand davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: klaster, agrosanoat klasteri, paxta-toʻqimachilik klasteri, gʻallachilik klasterlari, meva-sabzavotchilik klasteri.

Ключевые слова: кластер, агропромышленный кластер, хлопко-текстильный кластер, зерноводческие кластеры, плодородной кластер.

Key words: cluster, agro-industrial cluster, cotton-textile cluster, grading clusters, fruit-vegetable cluster.

Kirish. Bugungi kunda dunyoning koʻplab mamlakatlarida (AQSH, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Skandinaviya mamlakatlari, Chili, Xitoy, Hindiston, Rossiya) agrosanoat klasterlarini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, ularning sifat koʻrsatkichlarini yaxshilash va jahon bozorida raqobatbardoshlik darajasini oshirish kabi strategik maqsadlarni koʻzda tutadigan tadqiqotlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Agrosanoat klasterlarining mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini taʼminlash, qishloq aholisining bandligini oshirish, nisbatan sekin rivojlanayotgan hududlar va fermer xoʻjaliklarini qoʻllab-quvvatlash, ekologik muammolarni hal etishdagi rolini oshirish, uning samarali faoliyat koʻrsatishi uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish kabi masalalar ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlari hisoblanadi.

Oʻrganilayotgan hudud Samarqand viloyatida ham bir qancha yirik agrosanoat klasterlari mavjud boʻlib, ularda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash amalga oshiriladi. Viloyatda hozirgi kunda asosan, paxta-toʻqimachilik, gʻallachilik va meva-sabzavotchilik kabi agrosanoat klasterlari faoliyat yuritmoqda. Lekin hozirgacha tashkil etilgan Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlari zamonaviy texnika va texnologiyalarga ega emasligi, viloyat aholisini sifatli mahsulotlar bilan taʼminlash imkonini toʻla bermayotganligi, ular oʻrtasidagi raqobat muhitini yetarlicha shakllanmaganligi bilan bogʻliqdir.

Bunda avvalo, agrosanoat tarmogʻini rivojlantirishga klasterli yondashuv infratuzilmani yaxshilash, logistikani optimallashtirish, moliyaviy resurslardan foydalanishni taʼminlash va mahsulot sifatini oshirish imkonini beradi. Buning natijasida viloyatda qoʻshimcha iqtisodiy oʻsish, aholi turmush darajasi yuksalish imkonini beradi.

1-jadval. Samarqand viloyati agrosanoat klasterlari haqida umumiy maʼlumot (2024-y) [5].

Agroklastlarlar	Soni	Biriktirilgan maydoni, ming ga	Shundan		
			Klastlarda, ming ga	Fermer xoʻjaliligida	
				Soni	Maydoni, ming ga
Paxta-toʻqimachilik klasterlari	11	75356	14089	2112	61267
Gʻallachilik klasterlari	18	95198	11424	2125	83774
Meva-sabzavotchilik klasterlari	15	23157	2895	2759	20262
Sholichilik klasterlari	1	-	-	-	-
Dorivor oʻsimliklar	6	1386	-	-	-
Jami	51	195097	28408	7036	165303

Muammoning oʻrganilishi. Klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, asosiy yoʻnalishlari va xususiyatlari xorijlik iqtisodchi olimlar – M.Porter, S.Ketels, Oʻ.Soʻlvell, G.Lindqvist, E.Bergman, E.Ferser, C.Boj tomonidan, agroklastlarlar rivojlanishining jahon tajribasi L.Kiminami, A.Kiminami, S.Sharma, E.Nogales, F.Theus, R.Rama, M.Yu, L.Erling, R.Muyeller, A.Jankoviak tomonidan chuqur tadqiq etilgan [1]. MDH mamlakatlarida bu yoʻnalishda ish olib borgan olimlar qatoriga D.Belousov, D.Salnikov, D. Sivakov, T.Gurova, A.Voronov, A.Buryak kabilarni kirgizish mumkin. Ular bu borada fundamental tadqiqotlar olib bormasdan, M.Porter gʻoyalarini rivojlantirganlar xolos [4]. Mamlakatimizda klasterlar tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlari va tashkiliy masalalari Oʻzbekistonlik iqtisodchilardan R.Alimov, D.Kurbanova, A.Rasulov, M.Raxmatov, T.Joʻrayev, M.Kamilova, A.Alimov, A.Abduvaliev, N.Xolmatov, R.Roʻziev, M.Xusainov, G.Zohidov, D.Mirzaxalilova, Ch.Murodov kabilar mazkur yoʻnalishda bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borgan [1]. Ushbu tadqiqotlarda ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster sxemasi mamlakat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning, iqtisodiyotning turli tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida tahlil qilingan.

Asosiy qism. Oʻzbekistonda agrosanoat klasterlarini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Oʻzbekistonda 2023-yilda 633 ta qishloq xoʻjaligi klasterlari faoliyat olib borib, ularga 2,2 mln. gektar qishloq xoʻjaligi yer maydonlari birlashtirilgan. Eng koʻp sonli klasterlar meva-sabzavotchilik sohasida tashkil etilgan boʻlib, ularning umumiy soni 249 tani yoki jami klasterlarning 39,9 foizini tashkil etadi. Keyingi oʻrinlarni gʻallachilik – 200 (31,6 %), paxta-toʻqimachilik – 134 (21,2%), sholichilik – 41 (6,5 %) va dorivor oʻsimliklar – 9 (1,4 %) klasterlari egallaydi [5].

Samarqand viloyatida 2023-yilda 51 ta qishloq xo'jaligi klasterlari faoliyat olib borib, ularga 195097 gektar qishloq xo'jaligi yer maydonlari birlashtirilgan. Eng ko'p sonli klasterlar g'allachilik sohasida tashkil etilgan bo'lib, ularning umumiy soni 18 tani yoki jami klasterlarning 35,3 foizini tashkil etadi. Keyingi o'rinlarni meva-sabzavotchilik – 15 (29,4 %), paxta-to'qimachilik – 11 (21,6 %), dorivor o'simliklar – 6 (11,8 %) va sholichilik – 1 (2 %) klasterlari egallaydi. Bugungi kunda Samarqand viloyati agrosanoat klasterlarining tumanlar kesimida ajratilgan va birlashtirilgan qishloq xo'jaligi yerlariga ko'ra g'allachilik klasterlarida eng katta ulush Pstdarg'om (18,6%, 17466 ga), Payariq (13,1%, 12289 ga), Oqdaryo (10,2%, 9609,6 ga), Kattaqo'rg'on (9,5%, 8926 ga), Jomboy (9,3%, 8735 ga), Bulung'ur (6,7%, 6290 ga) hamda Paxtachi tumanlariga (6,6%, 6254 ga) to'g'ri kelmoqda. Viloyatda g'allachilik klasterlari soni yuqori bo'lgan tumanlar Oqdaryo, Ishtixon, Payariq, Urgut tumanlari hisoblanadi.

2-jadval. Samarqand viloyatida faoliyat yuritadigan g'allachilik klasterlari (2023-yil) [2]

№	Tuman nomi	Klasterlar soni	Biriktirilgan yer maydoni, (gektar)	shundan		
				Klasterda, (gektar)	Fermer xo'jaliklarida	
					Soni	Maydoni, (gektar)
1.	Bulung'ur	1	6290		784	6290
2.	Jomboy	1	8735		483	8735
3.	Ishtixon	3	7330	1000	244	6330
4.	Kattaqo'rg'on	1	8926		223	8926
5.	Narpay	1	5720	200	244	5520
6.	Nurobod	1	2010		87	2010
7.	Oqdaryo	4	9609.6	508.6	318	9101
8.	Pstdarg'om	1	17466		287	17466
9.	Paxtachi	1	6254	50	225	6204
10.	Payariq	2	12289		385	12289
11.	Samarqand	1	2035		323	2035
12.	Tayloq	1	4375		483	4375
13.	Urgut	2	3040		398	3040
	JAMI:	20	94079,6	1758,6	4484	92321

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Samarqand viloyatida meva-sabzavotchilik uchun ajratilgan yer maydonlari 52268 gektarni tashkil etadi. Shundan meva-sabzavotchilik klasterlari uchun tumanlar kesimida ajratilgan va birlashtirilgan qishloq xo'jaligi yerlari 23157 gektardan iborat. Hozirda viloyatda umumiy 15 ta meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyat yuritmoqda. Meva-sabzavotchilik klasterlari uchun birlashtirilgan qishloq xo'jaligi yerlariga ko'ra eng katta ulush Urgut (36,4%, 8430 ga), Samarqand (18,3%, 4242 ga), Tayloq (16,9%, 3918 ga), Bulung'ur (14,6%, 3370 ga), tumanlariga to'g'ri kelmoqda. Shu jumladan, tumanda mavjud meva-sabzavotchilik yer maydoniga nisbatan qamrab olinishda yetakchi Tayloq tumani 88%, Urgut tumani 77%, Payariq tumani 66%, Samarqand tumani 48% ni tashkil etadi. Qo'shrabod, Paxtachi, Narpay, Nurobod, Pstdarg'om, Ishtixon tumanida asosiy qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar maydoni ko'proq boshqa agroklastlar tarmog'iga ajratilganligi bois meva-sabzavotchilik klasterlari tashkil etilmagan.

4-jadval. Samarqand viloyatida faoliyat yuritadigan paxta-to'qimachilik klasterlari (2023 yil)

№	Tuman nomi	Klasterlar soni	Biriktirilgan yer maydoni, (gektar)	shundan		
				Klasterda, (gektar)	Fermer xo'jaliklarida	
					Soni	Maydoni, (gektar)
1.	Kattaqo'rg'on	1	6681	510	154	6171
2.	Kattaqo'rg'on	1	4069	910	64	3 159
	Nurobod		91		7	91
3.	Paxtachi	1	8195	1796	220	6399
4.	Narpay	1	10762	1600	226	9162
5.	Ishtixon	1	8620	1838	255	6782
6.	Payariq	3	12459	1276	417	11183
9.	Pstdarg'om	1	16949	1767	269	15182
	Nurobod		541		29	541
10	Oqdaryo	1	5761		203	5761
.	Jomboy		1228		230	1228
	JAMI:	10	75356	9697	2074	65659

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Viloyatda paxta-to'qimachilik klasterlarining tumanlar kesimida ajratilgan va birlashtirilgan qishloq xo'jaligi yerlariga ko'ra eng yuqori ulush Pstdarg'om (22,5%, 16949 ga), Payariq (16,5%, 12459 ga), Narpay (14,2%, 10762 ga), Kattaqo'rg'on (14,3%, 10750 ga) Ishtixon (11,4%, 8620 ga), Paxtachi (11,0%, 8195 ga), hamda Oqdaryo tumanlariga (7,6%, 5761 ga) to'g'ri kelmoqda.

Olingan natija va tahlillar. Samarqand viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari soni yuqori bo'lgan tuman Payariq va Kattaqo'rg'on tumanlari hisoblanadi. Boshqa tumanlarda bittadan paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etilgan. Shuningdek, Tayloq, Samarqand, Urgut tumanlari yer maydonlari ko'proq meva-sabzavotchilikka ixtisoslashganligi bois paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etilmagan. Qo'shrabod tumanida asosiy qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar maydoni ko'proq lalmikor dehqonchilikka ixtisoslashganligi bois birorta ham paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat olib bormaydi. Kelgusida bu tumanda iqlimiy sharoitlarni geografik joylashuvini inobatga olgan holda dorivor o'simliklarni yetishtiruvchi klasterlarni yo'lga qo'ysa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agrosanoat klasterlarning turlari bo'yicha tumanlarlar kesimida klasterlar uchun ajratilgan va birlashtirilgan qishloq xo'jaligi yerlariga ko'ra ulushiga nazar tashlasak, paxta-to'qimachilik hamda g'allachilik klasterlari bo'yicha eng yuqori ulush Pastdarg'om, meva-sabzavotchilik bo'yicha Urgut tumaniga tegishli.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan hududlarda agrosanoat klasterlarini tashkil qilish uchun yetarlicha imkoniyatlar jumladan, hududlarning qulay geografik o'rni, tabiiy sharoitning o'ziga xosligi, qishloq xo'jalik tuzilishi va mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi kabi muhim xususiyatlarga ega. Samarqand viloyatida meva-sabzavotchilik klasteri tizimini joriy qilish imkoniyatlari mutaxassislar tomonidan yuqori baholangan. Tadqiqot ishida o'rganilayotgan hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlariga mos, serhosil va eksportbop meva-sabzavot ekinlari navlarini joylashtirish, tashqi bozor talabiga to'liq javob beradigan mahsulotlarni yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonini to'liq qamrab oluvchi klaster tizimini keng joriy qilish taklif etiladi.

O'rganilgan ma'lumotlarga asoslangan holda avtish mumkinki, Samarqand viloyatining tog' va tog' oldi tumanlarining o'rmon xo'jaliklarida dorivor o'simliklar yetishtiruvchi klasterlarni tashkil etish imkoniyatlari yetarli. Shundan kelib chiqib, mintaqaning tog'li hududlarida dorivor o'simliklar yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlarini tashkil etish zarur. Bunday dorivor o'simliklar klasterlarini tashkil etishda iqtisodiy jihatdan barqaror faoliyat yuritayotgan, zaruriy infratuzilma obyektlari, tuproq-iqlim sharoitlari, suv ta'minoti, ichki va tashqi bozorlardagi talablarini inobatga olgan holda dorivor va ziravor o'simliklar joylashtirishga mos yer maydonlari ajratilishiga alohida e'tibor qaratish lozim [3].

Shuningdek, viloyatdagi mavjud agrosanoat klasterlari hududdagi umumiy klaster tizimini tashkil etmasdan balki alohida korxona misolida faoliyat olib bormoqda. Ya'ni klaster nazariyasida keltirilganidek, klaster hududdagi ixtisoslashuv asosidagi hamkorlik va raqobatning birlashishini aks ettirmasdan, balki qishloq xo'jaligi

mahsulotini o'z hududida yetishtirib yoki hamkor fermer xo'jaliklaridan xarid qilib, ularni realizatsiya qiluvchi firma sifatida ishlamoqda. Buning natijasida fermerlar, mahalliy hokimiyat organlari va klaster firmalariaro shunchaki gorizontal hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda. Bu ham Samarqand viloyati hududlarida chin ma'nodagi klasterlarni shakllantirish bilan bog'liq muammolardan biri deb aytishimiz mumkindir. Shuningdek, viloyatda agrosanoat klasterlarini shakllantirishda hududlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha joylashuv koeffitsientini inobatga olish va raqobat imkoniyatlari mavjud hududlarda klasterlarning tabiiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash kerakdir.

Xulosa va takliflar. Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega:

1. Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish uchun klaster ishtirokchilariga imtiyoz va preferensiyalar beruvchi maxsus zonalar tashkil etish.

2. Agrosanoat klasterlari sohasida faoliyat olib boradigan ishchi xodimlar va ularga birlashtirilgan fermerlar uchun o'quv va maslahat tadbirlarini o'tkazish.

3. Qishloq xo'jaligida hosildorlik va mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion loyihalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash.

4. Logistika va sotish bozorlarining qulayligini ta'minlash maqsadida agrosanoat klasterlari faoliyat yuritadigan hududlarda infratuzilmani rivojlantirish.

5. Agrosanoat klasterlari doirasida investitsiyalarni jalb qilish va kooperatsiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlari rivojlanishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati yaxshilanib, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi oshmoqda va qishloq aholisi farovonligi yuksalmoqda. Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish uchun maxsus zonalar tashkil etish zarur. Maxsus zonalar – bu agrosanoat klasterlari va qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun alohida sharoitlar yaratilgan hudud hisoblanadi. Ushbu zonalar investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani yaxshilash, resurslar va texnologiyalardan foydalanishni ta'minlash, sanoatning raqobatbardoshligini oshirish uchun mo'ljallangan.

Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish bo'yicha maxsus zonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko'maklashish va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kreditlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va boshqa chora-tadbirlar kabi qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilishi mumkin. Bunday hududlarni tashkil etishdan maqsad agrosanoat majmuasini rivojlantirishni rag'batlantirish, sanoatning ishlab chiqarish salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, korxonalarni yaqinlashtirish, tajriba almashish va umumiy muammolarni hal qilishga ko'maklashishdan iborat.

Adabiyotlar

1. Maxmasobirova N.U. Milliy iqtisodiyotni klaster modellari asosida rivojlantirishning jahon tajribasi (agrosanoat majmuyi misolida). Diss. avtoreferati. – Toshkent: 2023. 17-b.
2. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. www.samstat.uz
3. Ibragimov L. Boboyev Sh. Samarqand viloyatida agrosanoat klasterlar faoliyatini rivojlantirishning geografik imkoniyatlari. //“Fan va ta'limi”. 2023, №1. 82-91-b.
4. Ibragimov L. Boboyev Sh. Geografik tadqiqotlarda agrosanoat klasterlarini o'rganilishi. «Zamonaviy geografik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot, innovatsiya» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Samarqand: 12-13-may 2023. 251-255-b.
5. <https://www.agro.uz/iqtisodiy-ko-rsatkichlar/#1672920282692-4c40b427-73fb>

REZYUME. Ushbu maqolada Samarqand viloyatidagi agrosanoat klasterlarini hududiy joylashuvi o'rganilgan bo'lib, unda viloyatdagi agrosanoat klasterlarining holati va tumanlar kesimidagi joylashuvi, mavjud klasterlarning turlari va agrosanoat klasterlar tarkibidagi fermer xo'jaliklari, ularga birlashtirilgan qishloq xo'jaligi yerlari kabi muhim ma'lumotlar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье изучено региональное расположение агропромышленных кластеров Самаркандской области, а также представлена важная информация, такая как состояние агропромышленных кластеров в регионе и их расположение в районном разрезе, виды существующих кластеров и фермерских хозяйств в агропромышленном комплексе-выделены промышленные кластеры и прикрепленные к ним сельскохозяйственные угодья.

SUMMARY. In this article explores the territorial location of agro-industrial clusters in Samarkand region, covering important data such as the state of agro-industrial clusters in the region and their location in the cross-section of districts, the types of existing clusters and the farms within agro-industrial clusters, the agricultural land attached to them.